

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. H.HUSEYNINING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

I.1.H.Huseynining hayoti va ijod yo'li

I.2. H.Huseyni asarlarining o'ziga xos xususiyatlari

II BOB. H.HUSEYNI ASARLARIDA VAQT VA MAKONNI TASVIRLASH MAHORATI

II.1. Yozuvchining “Tog’lar ham sado berdi” asarida vaqt tahlili

II.2. “Tog’lar ham sado berdi” asarida makon talqini

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda islohotlar davrida jamiyat ma'naviyati asosi sanaladigan adabiyotga e'tibot davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda va kitobxonlikka alohida e'tibor berilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan 2019-yil 3-aprel kuni yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etildi"¹. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish chora-tadbirlar dasturi loyihasi to'rtinchi tashabbus maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu tashabbus zamirida yoshlarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, adabiyotni tahlil qila olish, tegishli xulosalar chiqarish, yoshlar tafakkurini kengaytirish maqsad qilib olingan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".²

Mavzuning dolzarbligi: Biz bilamizki, XIX-XX asrlarda jahon adabiyotining noyob namunalari yaratildi. Har qanday san'at asari zamon va muhitga bog'liq holda maydonga keladi. Chunonchi, ingliz xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar, ya'ni burjuaziya qoldiqlarining yemirilishi, sanoat inqilobining boshlanishi va qaror topayotgan yangi muhit adabiyot rivojiga ta'sir etmay qolmadi. Davr va muhit ruhiyatini aks ettirish, yangi mavzularni kashf etish yo'lidagi izlanishlar adabiyotga yangi tamoyillarni vujudga keltiradi, mazmun va shakl jihatdan yangicha she'riyatning shakllanishiga zamin hozirladi.

Bu davrda jahon adabiyoti ham ishq, yoshlik hamda tabiat mavzusidagi asarlar va falsafiy qarashlarni o'z ichiga mujassamlashtirgan asarlar bilan boyidi. Inson

¹Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. Toshkent. 2017.-B.212.

²Mirziyoyev Sh.M. Milliy qadryat yo'nalishini qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent: O'zbekiston. 2017.-B.125.

hayot, tabiat, jamiyat va o'z ruhiy dunyosi bilan birgalikda tasvirlana boshladi. Ijodkor dunyoqarashidagi evrilish barobarida adabiy jarayonning ham shoir-u adiblariga talabi ozgardi. Tojik adabiyotshunosi Yusuf Akbarov fikricha: "Asarda bo'lgan yangi mazmun va tafakkur yo'lidagi kurash, ayni zamonda, yangi shakl va ifoda vositalari yo'lidagi kurash hamdir. Yangi shakl bizning har kungi hayot va voqeligimiz taqazo etgan yangi taraqqiyparvar mazmunlarning qonuniy ifodasi bo'lishi kerak. Shakl va mazmunning mantiqiy va dilalektik aloqasi har xil o'zgarishlarning mohiyatini belgilaydi".³ Darvoqe, mazmun va shaklning mantiqiy va dialektik munosabati mazkur davr adabiyotni yangi sifat bosqichiga ko'tardi.

Mazkur davr adabiyotining o'ziga xos vakillarida bo'lgan Holid Husayni nafaqat adabiyotidagi, shuningdek, butun dunyodagi kitobxonlarning qalbidan chuqur joy egallagan mashhur yozuvchilardan bo'lib, barcha davrlar va xalqlar adabiyotining yagona maqsadi bo'lmish komil inson g'oyasi hamda tabiat mavzusi, makon va zamon tasviri uning ijodiyotida eng yuqori o'rinda turadi. Ana shu jihatdan ham asl adabiyot muayyan chegaralardan o'tib, insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Holid Huseyni o'z ijodida mumtoz adabiyot an'alariga tayangan holda o'zining durdona asarlarini yaratdi. Holid Huseyni asarlarida ishq, yoshlik, tabiat tavsifi va adolatsizliklardan shikoyat kabi mavzularni yoritishda yangicha tasviriy usullar, ifoda-yu tasvirlarni ham qo'lladi. Bu orqali mumtoz nasriy janrlarga zamon ruhini singdirishga erishdi. Hasan Husayni ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asarlardagi makon va zamon masalasiga shu nuqtai nazardan yondoshmoq lozim. Bu mavzu kitobxonni o'ziga jalb qila oladi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy obyekti va predmeti. Holid Huseyni tomonidan yozilgan "Tog'lar ham sado berdi" asarini ishimizning asosiy obyekti sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti asarda ifodalangan makon va zamon tasviri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari: Ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi: Holid Huseynining hayot yo'li, uning asarlarida makon

³Akbarov Y. Qismati inson va qismati she'r. Dushanbe, Donish nashriyoti, 1980, 194-sahifa.

va zamon tasviri masalasini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish mo'ljallanadi:

- Holid Huseyni ijodida makon va zamon tasviri ohanglari paydo bo'lishi omillarini tekshirish;
- Hasan Huseynining asarlarida o'rin olgan ramziy obrazlarining ijodkor nuqtai nazarini yoritishdagi o'rnini tadqiq etish;
- Yozuvchi asarlarida ifodalangan azal va abad muammolari, hayot va o'lim makon va zamon munosabatlari bilan bog'liq masalalarning ijodkor estetik prinsiplarini belgilashdagi rolini tahlil qilish;
- Yozuvchi asarlarida makon va zamon mavzusini ifodalashda xizmat qilgan uslubiy vositalarni aniqlash.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Holid Husayni ijodiga qiziqish XX asrda boshlangan. Ingliz adabiyotining taniqli yozuvchilardan Hebegar Alfred "Holid Huseyni", Tomas Jonson va H. Far kabi yozuvchilar o'zlarining maqolalarida hamda asarlarida ilk bor munosabat bildirdilar. Hebegar Alfredning "Holid Husaynining hayoti va ijodi" haqidagi asarlarida yozuchining hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi: Mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, Holid Husayni asarlarida makon va zamon tasviri bilan inson qalbining ruhiy manzaralari ilk marotaba qalamga olinmoqda. Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda, asosan, haqiqiy manbalardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati: Anderson Douglas "Descriptive bibliography", Bode C "Highlights of American Literature", F.Boynazarov "Jahon adabiyoti", T.Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari", T.Boboyev Adabiyotshunoslikka kirish kursi bo'yicha o'quv metodik qo'llanma, H.Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi", kitoblaridan foydalanildi.

Holid Huseynining "Tog'lar ham sado berdi" asarida makon va zamon mavzusining yoritib berilishi va uning ushbu asarida qahramonlar ruhiy iztiroblarini yoritishda yozuvchilik mahoratining ifodalanishi, Holid Huseynining

muammo qo'yish uslubi o'rganilganligi va muayyan xulosalarga kelinganligi ushbu bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyatidir. Undan Holid Husaynining hayoti va ijodiga bag'ishlangan kurs ishlarida, xususan, referat yoki bitiruv malakaviy ishlarini yozishda, dars jarayonlarida, shuningdek, yozuvchilarning ijodini o'rganishda foydalanish mumkin.

I BOB. H.HUSYNINING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

I.1 H.Huseynining hayoti va ijod yo'li

Hayotning rang-barang hodisalarga to'la ekanini ozmi-ko'pmi anglab boryapmiz. Har biro damning u yoki bu hodisaga bergan bahosi bir-biridan anchagina farq qilishini ham ko'rib-bilib turibmiz.

Insoniyat bosib o'tgan tarixiy yo'l shu qadar chigal, murakkab hodisalarga boyki, uni dabdurustdan baholashning hech iloji yo'q. Shu tufayli ham o'tmish to'g'risida har bir ilm sohasi o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib xulosalar yasaydi. Bu rang-baranglik san'at sohalariga ham birdek tegishlidir.

Deylik, ushbu mavzuni o'rganayotganimizda sinf derazalaridan sizni o'ziga chorlayotgan bahor faslining tarovatini musavvir mo'yqalami orqali turfa bo'yoqlarda tasvirlasa, bastakor ushbu fasl nafasini ohang yordamida ko'nglingizga olib kiradi. Xuddi shu kabi, agar tarix ilmi voqea-hodisalarining qachon, qayerda, nima sbabdan yuz bergan bu qanday natijalarga olib kelganini chuqur o'rgansa, adabiyot uchun ushbu hodisalarga ishtirok etgan kishilarning ismi-u sharifi, ularning tarjimayi holiga oid faktlarni iloji boricha aniq ifoda etmog'i lozim. Ijodkor adib esa o'z g'oyaviy-badiiy maqsadidan kelib chiqib mazkur hodisalarga biroz sekinroq yondashadi.⁴

Adabiyot shunday chamanzorki, uning bo'stonida gul ko'p, chechak ko'p. Bu bo'stonda bir-biriga o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan dilbar shoirlar va shoiralar avlodi qayta-qayta bo'y cho'zaveradi. Ana shunday betakror shoiralarimizdan biri, shubhasiz, turk adabiyotining otashnafas farzandi Holid Huseyni bo'lib hisoblanadi. Holid Huseyni 1965-yilda Kobulda afg'on diplomati oilasida tug'ilgan. 1980-yilda uning oilasi AQShga ko'chadi. Shu yerda u tibbiyot fakultetiga o'qishga kiradi. Uning ilk romani "Shamol ortidan yugurib" AQShda yangi asrning bestseller asariga aylanadi. Mazkur asar dunyoning qirqdan ortiq

⁴Jumayeva S. Adabiyotshunoslik asoslari. Navoiy: 2008.-B.56.

tillarida 10 million nusxada nashr qilingan. Bu kitob asosida Gollivud kinoijodkorlari film ham suratga olishgan.

2000-yillarning o'rtalarida Husaynining onasi juda qattiq surunkali kasallikka chalinadi va bu kasallik bemorni o'rnidan turolmaydigan darajada bo'lib qolishiga olib keldi. Bu kasallik Husaynining onasini 2008-yilgacha, ya'ni uning o'limiga qadar davom etadi. 2004-yilning yozida Husayni o'zining qadrdon do'stlaridan biriga maktub yo'llaydi va ushbu maktubda Husayni o'sha do'stini uyiga taklif qilgan. O'zi bora olmasligini, bunga sabab onasining sog'ligidagi muammoni aytib o'tadi. Otasi ham yaqinda safardan qaytayotganligini aytadi. Bunday paytda Husayni o'zining ijodidagi eng go'zal namunalarni yaratdi desak mubolaga'a bo'lmaydi. Onasining sog'ligidagi muammo tufayli oiladagi barcha javobgarliklarni, ya'ni uy ishlarini o'z bo'yniga oladi. Shu sababli ham doimiy uyda bo'lishga majbur edi. Ancha yillardan keyin onalarining sog'ligi tufayli, ya'ni surunkali kasalligi tufayli qizlaridan biri doimiy onasi bilan birga bo'lishi kerakligi haqida gapirib o'tadi. Bunday ma'suliyatli vazifani Husaynining singlisi o'z bo'yniga oladi. Bu paytda Husayni o'zining hayotini ijodiy dunyosini yanada mukammallashtirgan holda o'zining kitoblarida bayon qilgan holda yashashni davom ettiradi.⁵

Dunyodagi ko'pgina ijodiy namunalar bilan tanishgan holda Holid Husayni 2003-yildan boshlab yozida abadiy qalblarni ishg'ol qiladigan go'zal ijodiy namunalarni yaratdi. Bu davrda Holid Husayni butunlay ijodga sho'ng'ib ketadi. O'zining eng sara asarlarini tanlab alohida nusaqalarni hosil qila boshlaydi. Chunki Holid Huseyni Rumi, Hofiz Sheroziy, Umar Xayyom, Mirzo Abdulqodir Bedil va boshqa serqirra ijodkorlarning ijodiy namunalari bilan tanishgan va bolaligidan sevib o'qigan edi. Aynan shu sababli ham yozuvchining ijod qilishga muhabbati paydo bo'lgan bo'lsa ne ajab.⁶

2003-yillarning oxirlarida Huseynilar oilasi Springfield Republican deb nomlangan nashriyot uyining boshligi Samuel Bovles va uning rafiqasi Mary

⁵ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2002.-B.104.

⁶ Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2006.-B.134.

Bovles bilan do'st tutinadilar. Samuel hamda Mary Huseynilar oilasiga doimiy tashrif buyurib turadilar. Bu paytda Huseyni Samuelga o'ttiz oltita maktub yo'llaydi. Bu maktublarda asarlaridan namaunalar ham yo'llagan edi. Ularning do'stliklari juda ko'p ijodiy namunalarini ham yaratilishiga sabab bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Bovleslar uning deyarli barcha asarlarini jurnalda nashr qiladilar. Holid Huseyni 2004-2005-yillar mobaynida "Master letters" deb nomlangan uchta maktub yo'llaydi. Ushbu maktublarda noma'lum odam qahramon sifatida ta'riflanadi. Bu qahramon kim ekanligi haqidagi fikr-mulohazalar olimlar o'rtasida har xil qarashlarga hamda bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

2000-yillarning birinchi yarmida Huseyni ijtimoiy dunyodan butunlay chetga chiqib qoladi. Bu davr esa Huseynining hayotidagi eng samarali ijodiy davr bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Zamonaviy olimlar hamda izlanuvchilarning fikr-mulohazalariga qaraganda Huseynining dunyodan ajralib qolishi hamda yolg'izlik dunyosiga g'arq bo'lishining sababini ikkiga bo'lgan holda talqin qiladilar. Huseyni o'zining nerv tolalarini shifokorlar ko'rigidan o'tkazgan chog'ida, ya'ni shifokorlarning tekshiruvidan o'tgan paytida juda ko'p tashxislar qo'yilgan.

2009-yilning aprel oyida adabiy tanqidchi, yirik yozuvchi hamda sobiq vazir hisoblangan Tomas Vent Higgenon Huseyniga "Yosh ijodkorga maktub" deb nomlangan maktub yo'llaydi. Bu maktubda Huseynining ham hayotini, ham ijodiy faoliyatini o'zgartirib yuboradigan jummalarni keltirgan edi. Huseyni "Siz yashash tarzingizni o'zgartiring, yangi dunyoni kashf qiling" degan jumlar mavjud edi.⁷ Bu so'zlar yozuvchiga ham hayotiy tarzini, ham ijodiy faoliyatini mukammallashtirishga ilhom bag'ishlovchi va ruhlantiruvchi jumlar bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Bunday maslahatga muhtoj bo'lgan bo'lgan Huseyni ijodiy faoliyatini yangilashga qaror qiladi. Huseyni endi Tomasning maslahatlariga ergashgan holda u bilan hamkorlik qila boshlaydi hamda 2004-yilda o'zining eng ajoyib asarlarini nashr qilish to'g'risida o'ylay boshlaydi. Huseyni yana shuni ham anglaydiki, muxlislarsiz yozuvchi hech kim emas va ijodiy faoliyating yanada

⁷Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2002.-B.134.

ko'klarga parvoz qilishi ham aynan muxlislarga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Huseyni shu paytgacha juda ko'p marotaba ijodiy hamkor izlagan edi. Ammo unga hech kim yordam qo'lini cho'zmaydi. Shuning uchun ham Huseyni Tomas Ventga o'zining chuqur minnatdorchiligini izhor etgan holda ijodining eng sara namunalaridan o'zining maktubida yuboradi. Juda yuqori nafislik bilan g'ayritabiiy bu xatda biror bir belgi ko'rsatilmagan edi. Ammo Huseyni o'zining ismini konvertning bir chekkasiga bitgan edi. Shuningdek, konvertga o'zining asarlaridan namunalaridan ham solib yuborgan edi. Huseynining ijodiy namunalari bilan tanishgan Tomas Vent uni juda ko'klarga ko'tarib madh etadi. Ammo unga hali ozgina ijod qilganidan so'ng, o'zining ijodiy namunalarini nashr qildirishi lozimligi haqida maslahat beradi. Lekin bu paytda uning ijodiy namunalari dunyo yuzini ko'rishga ulgurgan edi. Huseyni o'zining ijodiy namunalarini muxlislar qalbidan joy olishiga ishonayotgani haqida o'zining maktubida bayon qiladi. Shuningdek, Huseyni shuni niyat qiladiki: "Agar shon-shuhrat mening toleyimga yozilgan bo'lsa, bundan qochib qutilishning iloji yo'q. Aksincha bo'lsa ham men ijod qilganimdan hech qachon afsuslanmayman degan edi".⁸

Huseyni Higgensonga yuborgan maktublaridagi dramatik o'ziga bergan ta'rif-tasnifi hamda sir-sinoatidan juda ham xursand bo'ladi. Holid Huseyni o'ziga shunday ta'rif bergan edi: "Men hozirchalik chumolidek kichkinaman, mening sochlarim ham yo'q. Mening sochlarim kashtan tikanlariga o'xshaydi. Mening ko'zlarim esa billur idishdagi xeres uzumidan tayyorlangan eng oliy navli vinoga o'xshaydi" deb aytgan edi.⁹ Shu o'rinda Holid Huseyni o'zining yolg'izligiga ham alohida urg'u berib o'tadi. Holid o'zining haqiqiy do'stlari sifatida ulkan tog' cho'qqilari, tepaliklar, quyosh botishi, uning iti Karlo deb tan oladi. Shuningdek, Holidga uning onasi yetarli darajada mehribon bo'lmasada, uning otasi biror marta unga kitob sovg'a qilmagan bo'lsada, ijodaga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini yo'qotmaganligi haqidagi o'zining fikr-mulohazalarini chuqur anduh bilan ta'kidlab o'tadi.

⁸Jumayeva S. Adabiyotshunoslik asoslari. Navoiy: 2008.-B.56.

⁹Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2002.-B.94.

Holid Huseyni Higgensonning ajoyib maslahatlarini juda qadrlar edi. Keyinchalik Higgensonga bitgan maktublarida “Janob Higgenson”, “Qadrli do’stim”, “Aziz do’stim” deya muroajaat qila boshladi. Maktubning xayrlashuv qismida esa o’zni “Sizning gnomingiz”, “Sizning yozuvchigiz” deya o’zining sermazmun maktublarini yakunlar edi.¹⁰ Higgensonning Huseynining ijodiy faoliyatiga qiziqishi hamda doimiy qo’llab-quvvatlashi unga ulkan ruhiy ko’mak berar edi. Ko’p yillar o’tgandan so’ng, Holid Higgensonga 2003-yilda uning hayotida ulkan burilish sodir qilishda yordami beqiyos ekani haqida ta’kidlaydi. Bu vaqtda Holid Huseyni juda chuqur ruhiy iztirobda bo’lib, bunday og’ir paytida Higgenson unga juda katta ruhiy madad beradi. Holid Huseyni hamda Higgenson uning vafotiga qadar doimiy maktub orqali muloqot qilib turganlar. Ammo Huseynining adabiy qarashlarini ifodalashdagi duch keladigan qiyinchiliklari hamda boshqalar bilan hamkorlik qilishni xohlamasligi Higgensonni juda hayratda qoldirgan. Holid Huseyni Higgensonga ko’pgina ijodiy namunalarini nashr qildirishga ham ruxsat bermaydi. Huseyniga o’zining ijodiy namunalarini chop ettirish ehtimolligi juda kam bo’lganligi juda ko’p ta’kidlangan. Adabiy tanqidchi Edmund Vilson “Urush davridagi adabiyot”ga o’zining fikr-mulohazalarini bildirganda Holid Huseynining ijodi haqida ham juda iliq fikr-mulohazalarni keltirib o’tadi. Edmund Vilson Huseynining ijodiy namunalarida insonni ruhlantiradigan, hayotga bo’lgan muhabbatni oshiradigan lavhalar juda ko’pligini ham alohida ta’kidlab o’tadi.¹¹

Huseynining Avon nashriyot bo’limida olib borgan faoliyati katta tajriba maktabi bo’ldi desak mubolag’a bo’lmaydi. Bu yerdagi hamkasblari ham juda yaxshi bo’lib, Holid bu yerda hayotining eng ajoyib vaqlarini o’tkazdi. Holidning birinchi farzandi dunyoga kelganidan so’ng, ularning hayotlarida og’ir damlar boshlanadi. Keyin Holid o’zining oilasi bilan boshqa shahriga ko’chib ketdilar.

Holid biroz yollanma ishchi bo’lib ishlaganidan so’ng, u Vorkester Telegram deb nomlangan gazetaga muhbir sifatida o’zining faoliyatini boshlaydi. Bu yerda

¹⁰Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2006.-B.139.

¹¹Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2002.-B.99.

ishlay boshlagandandan so'ng, u o'zining ish faoliyatidan qoniqish hosil qila boshladi desak adashmagan bo'lamiz. 1959-yilda boy va mashhur Boston Gerald tomonidan ishga taklif qilinadi. Bu Telegramday mashhur bo'lgan ertalabki gazetalardan biri bo'lib hisoblanadi. Holid bir paytning o'zida ham umumiy muhbir lavozimida ham ishlardi. Bu Holidning hayotidagi ulkan ilmiy hamda tibbiy yuksalish davrining boshlanishi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Holid Huseynining Geraldga ishlaydigan davrida o'zi chiqarishda muhbirlik qilayotgan gazetada o'zi bevosita guvoh bo'lgan jarrohlik amaliyoti natijalarini xalqning e'tiboriga havola qildi. Shundan keyin qisqa vaqt ichida o'zi ishlayotgan Gerald gazetasining ilmiy nashriyotchisi lavozimida faoliyat yurita boshlaydi.¹²

Huseynining ijodining mahsuldorligiga qarama-qarshi jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, bu 2010-yillarning boshlarida namoyon bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Holid 2010-yilda har doimgidan ko'ra kamroq asar yozdi, ya'ni har doimgidan ko'ra kamroq ijod qiladi. Buning asosiy sabablariga o'zining eng yaqin insonlaridan judo bo'lganligi hamda hashamatli uydagi uy ishlarida yordamning kamligida deb ko'rsatishimiz mumkin. Holid o'zining oldingi ijod qilish darjasini saqlash uchun juda charchagan edi. O'n olti yil davomida har doim yonida bo'lgan qadrdon do'sti hisoblanagan iti Karlo shu paytda vafot etadi. O'zining eng qadrdon do'stidan judo bo'lgan Holid Huseyni uzoq vaqt o'zini o'nglay olmaydi, ruhiy jihatdan chuqur qayg'uga tushib qoladi. Shundan so'ng Holid umri davomida qaytib it olmaydi. Chunki Holid uchun Karlning o'rnini endi hech qanday it egallay olmas edi.

Holid Huseynining ilk asari – “Shamol ortidan yugurib...” (“The Kite Runner”) eng mashhur jurnallardan birida 2003-yilda chop etilgan bo'lib hisoblanadi. Jahon adabiyotida XXI asrning bosh romani, uning muallifi — tirik klassik deb ataladi. Xususan, 2009-yilda “The Millions” jurnali tomonidan o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra ushbu roman yangi ming yillikning eng yaxshi 20 asari ro'yxatidan o'rin oldi. “Shamol ortidan yugurib...” ellikdan ortiq tillarga tarjima qilingan va 10 million nusxada chop etilgan.

¹² Robert P.L. A companion to American fiction. New York: 2010.-P.211.

Asarlarini ingliz tilida bitadigan yozuvchi Afg'oniston poytaxti Qobulda 1965-yilda tug'ilgan. Uning otasi afg'on diplomati, onasi qizlar maktabida fors tili va tarixdan dars bergan. Otasi Afg'onistonning Erondagi elchixonasida xizmat qilgan, 1976-yilda Fransiyada diplomatik lavozimga tayinlanishi munosabati bilan oila Parijga ko'chib kelgan.

Ikki yil o'tgach, Afg'onistonda davlat to'ntarilishi sodir bo'lishi oqibatida Huseynilar vataniga qaytish imkoniyatidan mahrum bo'lgan va ular AQShdan siyosiy boshpana so'rashga majbur bo'lgan. Bu yerda bo'lajak yozuvchi Santa-Klara va Kaliforniya universitetlarida tibbiyotni o'rgangan. Universitetni tugallaganidan so'ng, biroz vaqt o'z ixtisosligi bo'yicha ishlagan, keyin esa Sharq tamadduni, xususan Afg'oniston tarixi bilan bog'liq romanlar yoza boshlagan.

Adibning, ushbu to'plamdan joy olgan, Rustam Jabborov tomonidan tarjima qilingan "Shamol ortidan yugurib..." romanida do'stlik va sadoqat, sotqinlik va bu aybni yuvish mashaqqati g'oyat ta'sirchan tasvirlangan. Asar qahramonlari Amir va Hasan do'st, biroq oralarida ulkan jardek farq bor. Amir Afg'oniston aholisi ko'pchiligini tashkil qiladigan pushtun, mahalliy zodagonning farzandi, Hasan esa kamsitib kelinadigan hazoriylardan bo'lib, hayotda juda ko'p qiyinchiliklarni boshhidan kechiradi. Buning ustiga Amirning otasi ko'rinishi ko'rkam va el-yurtda nufuzli inson, qirol Nodirshoh bilan to'yida tushgan rasmi qasrining mehmonxonasida osig'lik turadi. Hasanning otasi Alining oyog'i bolalikdan oqsaydi, yuzi falaj oqibatida huddi haykalkidek qotib qolgan, bolalar ko'pincha uning orqasidan "Babalu" ("alvasti") deb ermak qilishadi.

Holid Huseynining "Shamol ortidan yugurib..." romani 2005-yilda Fransiya radiosi tomonidan har yili beriladigan adabiyot bo'yicha "Dunyo guvohi" mukofotiga sazovor bo'lgan. Roman bo'yicha 2007-yilda rejisser Mark Foster tomonidan shu nomda badiiy film ham yaratilgan.

"Shamol ortidan yugurib..." asarini shartli ravishda erkaklar qismati haqidagi asar deb baholansa, "Ming quyosh shu'las" ("A Thousand of splendid suns") asarini ayollarga bag'ishlangan roman deyish mumkin. Bu mashhur asar 2007-yilda chop etilgan.

Rustam Jabborov o'zbek tiliga tarjima qilgan "Ming quyosh shu'lası" markazida esa Afg'onistonni larzaga solgan fojealar qurboniga aylangan ikki ayol taqdiri yotadi. Mariyam nikohsiz onadan tug'ilib, "haromi" tamg'asi bosilgan, juda yoshligida o'zidan ancha katta kosibga turmushga uzatilgan, og'ir uqubatlarni boshidan o'tkazgan baxti qarolardan bo'lib, hayotda juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. Asarning ikkinchi bir qahramoni Laylo esa aksincha ahil oiladagi suyakli farzand. Ularning baxtiyor hayot kechirish orzulari o'rtasida biror bog'liqlik yo'q, chunki o'zlari turli dunyoga mansublar. Agar urush bo'lmaganida ular to'qnash kelishi amri mahol edi. Ammo xalq boshiga tushgan og'ir sinov davrida Laylo va Mariyam bir-biriga juda bog'liq bo'lib qoladilar. Lekin o'zlari kimligini – bir-biriga dushmanmi, dugonami yoki opa-singilmi bilishmaydi. Ular ro'y berayotgan fojealar ro'parasida yolg'iz va nochor qoladilar. Ammo birgalikda azob-uqubatlarni yengib o'tadilar, baxt ahyon-ahyonda bo'lsa ham ularga kulib boqadi.

"Ming quyosh shu'lası" Afg'onistondagi urush dahshatlaridan yurakni ezadigan, ammo qora kunlar ortidan muqarrar ravishda quyosh charaqlab chiqishiga umid qilishga undaydigan g'oyat ta'sirchan asardir. Asar qahramonlari zulmat ichida yashasalar ham o'zlarining insoniy qiyofalarini yo'qotishmaydi.

Holid Huseynining o'ziga xos "Afg'oniston trilogiyasi"ning uchinchi romani — "Tog'lar uzra aks-sado" asarida ("The Mountains Echoed") ham yozuvchi o'z vatani — XX-XXI asarlarda turli siyosiy kuchlar manfaatlari to'qnashgan, qirg'in urush maydoniga aylangan jafokash Afg'oniston muammolarini ko'targan. Bu asar 2003-yilda dunyo yuzini ko'rdi va ulkan mashhurlikka erishdi.¹³

Amerikalik doktor AQShdagi to'q va osuda hayotidan so'ng, bu yerdagi dahshatli voqelikka duch kelib, urushning fojealari guvohi bo'ladi. Asar qahramonlari orasida Qobuldagi kasalxonada yarador bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatayotgan bosniyalik hamshira, uchayotgan o'q va bombalar ostida ham operatsiya stoli yonidan jilmaydigan gretsiyalik jarroh, tinch hayotga moslasha

¹³Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2002.-B.98.

olmayotgan sobiq dala qo'mondoni ham bor. Bu yerda G'arbning oqilligi Sharqning hassosligiga to'qnash keladi, ikki tamaddunning dunyoqarashi turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Holid Haseyni yozuvchilik faoliyati bilan bir qatorda Birlashgan Millatlar Tashkilotining qochqinlar bo'yicha xodimidir. Bu vazifada u afg'onlar, birinchi navbatda afg'on bolalariga insonparvarlik yordami ko'rsatib kelmoqda. Holid Haseyni Afg'onistonga insonparvarlik yordami ko'rsatish bo'yicha o'z jamg'armasini ham tashkil etgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tmog'imi joiki, Holid Huseynining hayoti va ijodiy faoliyati har bir insonni o'ylanishga, fikrlashga majbur qiladi. Uning yaratgan noyob durdonlari dunyo bo'ylab ko'pgina kitobxonlarning qalbidan chuqur joy egallagan desak yanglishmagan bo'lamiz.

I.2 H.Huseyni asarlarining o'ziga xos xususiyatlari

Biz bilamizki, ingliz adabiyotining mashhur hamda otashin yozuvchilaridan bo'lgan Holid Huseyni o'zining asarlarida asosiy obraz inson obrazi bo'lib, durdonalardagi qahramonlar va obazlar insonning qayg'usi va quvonchini, achinish hamda xiyonatni, ezgulik hamda yovuzlik kabi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tuyg'ularni bo'yi-basti ila ko'rsatib berishga harakat qiladi. Holid Huseynining asarlarida kuchli va boy tasavvurlar va ajib bir go'zallik jo bo'lgan bo'lib, kitobxonlarning qalbidan chuqur joy olishi, kitobxonlarning qalbida pinhon saqlayotgan kechinmalarni yoritib bera olishi hech kimga sir emasdir.

H.Huseyni ijodiga nazar tashlar ekanmiz, bu ujudkorning universal ekanligiga guvoh bo'lamiz, ya'ni Holid nafaqat yozuvchi, balki jurnalist, adabiy tanqidchi, nazariyotchi, din targ'ibotchisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu esa Holidning turli janrlarda, mavzularda ijod qilishida ko'maklashadi. Hayoti davomida juda ham ko'plab bahsli vaziyatlarga duch kelgan yozuvchi ulardan maksimal darajada foyda olishga, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarishga harakat qiladi. Umuman olganda, Holid Huseynining asarlari ham turli xil mavzularga, masalalarga bag'ishlangan. Yozuvchining hech bir ijod mahsuli bir xillikga asoslangan emas, aksincha turli voqea-hodisalarni, hayajonlantiruvchi, qiziqarli vaziyatlarni o'z ichiga oladi. Hech bir o'quvchi Holid Huseynining rang barang asarlari, mavzulari, qahramonlaridan zerikib qola olmaydi. Uning asarlari turli xil mavzularni o'z ichiga olishi bilan ham mashhurdir. Holid Huseyni o'zining barcha asar, hikoya, maqola va hatto ertaklarida ham jamiyat uchun eng muhim bo'lgan masalalarni ko'taradi, adolat talab qiladi, muammolarga yechimlar topishga harakat qiladi.¹⁴

Shuni alohida ta'kidlab o'tmog'imiz joizki, Holid Huseyni ijodi haqida gap ketganda, ko'pchilik o'quvchilar uni durdona asarlar yozishdagi o'z uslubiga ega mohir yozuvchi sifatida bilishadi. Holid ijodiy namunalari bilan tanishar ekanmiz,

¹⁴Jumayeva S. Adabiyotshunoslik asoslari. Navoiy: 2008.-B.56.

bir g'oyaga qayta qaytaduch kelimiz: uning asarlaridagi tasavvur, fikr, qarashlar asar yozishning eng nozik talablariga hamohang ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Husayn asarlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda ko'tarilgan mavzular asosan ilohiyotga ishonch, tabiat go'zalligi, insoniylik, o'zaro hurmat kabi dolzarb g'oyalarning aks ettirilishidadir. Ko'pgina tanqidchilarning fikriga qaraganda u noyob durrdonalarni yaratish davomida har xil qoliplarga solish, asarlardagi mavzular ko'lamizni boshqarishga e'tibor qaratmagan, ya'ni asar yozayotgan paytida fikrlarni erkin hamda yorqin bayon qilgan. Shundan bo'lsa kerak uning noyob asarlari son-sanoqsiz muxlislarni o'ziga jalb qiladi.

Matthev Arnoldning hikoyalarida Huseyni asarlari haqida quyidagicha ta'rif beriladi "Haqiqatdan ham Holid asarlarida mantiqiy bir jihat borki, mening fikrimcha uning asarlari oxirigacha o'qib bo'lguncha aniq bir fikrga kelish qiyindir, biroq juda qiziqdir. U odamlarni o'ylashga majbur qiladi, bu ha asar yaratishning ajoyib bir turi desak mubolag'a bo'lmaydi. Arnold maslahat berishicha -"Agar kimdir yozuvchi bo'lishga qaror qilolmasa, unga jaoma va o'rgatish zarurdir. Bir narsa ehtiyojdan paydo bo'ladi, xohish va istak shu asarlarga asos bo'ladi".¹⁵ Bu g'oyalarga transkendentalist harakatchilari ham qo'shiladilar. Shu jumladan Holid Huseyni ham o'zining asarlarida ko'rsatib o'tadi. Holid Huseynining asarlari muxlislari tamonidan sevib o'qiladi va ularning o'ziga jalb qilgan.

Holid Huseyni o'z ijodini juda erta boshladi. Uning dastlabki asari 2003-yilda hisoblangan "The Kite Runner" asari dunyo bo'ylab shuhrat qozonadi. Bunday ulkan muvaffaqiyatga erishgan yozuvchi meditsina sohasidagi faoliyatiga butunlay nuqta qoydi. 1979-yilda Anqaraga qaytgandan so'ng ham o'z ijodini journalist, bolalar hikoyanavisi hamda romannavisi sifatida davom ettirdi. Huseynining yanada mashhur qilgan bestseller asarlaridan biri "The thousand splendid suns" ("Ming quyosh shu'las") romani bo'lib, bu asar 2007-yilda dunyo yuzini ko'rdi va bu asari ham ulkan muvaffaqiyat qozondi. Bu asar 103 hafta

¹⁵ Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2006.-B.234.

davomida bestsellerlik maqomini yo'qotmagan holda misli ko'rilmagan darajada ko'p sotiladi.¹⁶

Yana bir mashhur asarlaridan hisoblangan, “The mountains echoed” (“Tog’lar ham sado beradi”) asari ham 33 hafta davomida muxlislarning e’tiborida bo’ldi. Bu 2014-yil yanvar oyiga qadar davom etdi. Huseynining o’nga yaqin romanlari alohida bilim talab qiladi. Chunki ushbu romanlarda Afg’oniston mamlakati siyosati o’tkir va kuchli uslublarda tasvirlangan. Bu kabi kitoblar ko’proq Amerikalik kitobxonlar tomonidan xush ko’rib o’qilardi. Yozuvchi juda ko’p badiiy asarlar, afsona, roman, hikoyalar yozgan va ulardan 14 tasini Antoniy Trolopning “Barsetshire” to’plamiga kiritgan bo’lib, ular yozuvchiga juda ko’p muvaffaqiyat keltirgan. Yozuvchi o’z asarlariga xuddi Jon Galsuorsining “The Country House” asaridagidek, sirli sarlavhalar qo’yadi.¹⁷

Biz endi fikr-mulohazalarimizni “Ming quyosh shu’lasi” asari haqida qisacha ma’lumot keltirib o’tmoqchimiz.

“Ming quyosh shu’lasi” adib Holid Huseynining ikkinchi kitobi bo’lib, 2007-yilda ushbu roman butun dunyoda bestsellerga aylandi. Asar muhabbat haqidagi voqealarni bayon qiladi. Holid Huseynidan oldin ham sevgi-muhabbat haqida ko’p yozilgan, bundan keyin ham yoziladi. Ammo “Ming quyosh shu’lasi” asarini o’qiy boshlaganingizdayoq o’zga bir olamga g’arq bo’lasiz. Illo, zulm va istibdod hukmron bo’lgan, odamgarchilik va diyonatga o’rin yo’qdek ko’rinadigan, tun zulmatidan-da qoraroq ko’ringuvchi bir o’lkada, o’qlardan ilma-teshik bo’lib ketgan zaminda ham sevgi-muhabbat kurtaklari bosh ko’taradi. Qiyinchiliklar, zulmat, nohaqliklar, hayot tashvishlari va azob-uqubatlardan keyin ham insonlar qalbida diyonat va oqibat uchun joy topiladi. Romanning asosiy qahramonlari Afg’onistondagi tinch hayotni buzgan g’alayonlarning qurboniga aylangan ikki ayol haqida bo’lib, Maryam – boy tadbirkorning noqonuniy qizi, esini tanibiq qiyinchiliklar, nohaqliklar, xo’rlanishlarga mahkum bo’lgan, taqdiri shunday tugashi haqidagi fikrga ko’nikib ketgan. Laylo esa aksincha, baxtli hayot haqida

¹⁶Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2006.-B.235.

¹⁷H.Huseyni. Tog’lar ham sado berdi. Toshkent. 2006.-B.7.

orzu qiladigan ahil oilaning sevimli qizi. Bu ikki ayolni bog'lab turadigan hech qanday umumiylik yo'q, ular turli olamlarda yashashadi. Agar qirg'inbarot urush bo'lmaganida edi, bu ikki ayolning yo'llari sirayam to'qnashmagan bo'lardi. Urush oqibatida nafaqat yo'llari, balki taqdirlari ham tutash bo'lgan ikki mazluma birlari uchun dushman ham, dugona yoki opa-singillar ham emas, ammo ular bir vaqtlari tinch-farovon hayot kechirgan, endi esa qon va zulmga g'arq bo'lgan shaharda birdam, hamjihat bo'lsalargina tirik qolishlarini bilishadi. Va ular buni uddalashadi ham: azob-uqubatlardan birga o'tishadi, birga quvonishadi, birga yig'lashadi, ammo bir daqiqagina bo'lsin, yorug' kelajakka etib borishdan umid uzisholmaydi.

“Ming quyosh shu'lası” urush dahshatlaridan yuraklarni siqadigan, ammo qaro tunlar ortidan bari bir quyosh charaqlab chiqishiga umid qilishga undaydigan ajoyib asar hisoblanadi. Iqtidorli yosh yozuvchi va tarjimon Rustam Jabborov mahorat bilan o'zbek tiliga o'g'irgan bu asarni o'qishimga to'g'ri kelganida qanchalar yurak-bag'rim ezilgani hamon esimda. Vaholanki, bu ikki ayol mening tengdoshlarim. Ular shunday sho'rishlarni boshdan kechirayotgan paytlarda biz o'ynab-kulib yurardik, ammo yonginamizda, shundoqqina qo'l uzatsak yetgudek joyda insonlar, ayniqsa, ojiza ayollar uqubatlarga muhtalo bo'layotganlari xayolimizga ham kelmasdi. Holid Huseyni ana shu hayot haqiqatini bizga ro'yi rost ko'rsatib berolgan. Eng muhimi, asar qahramonlari zulmat orasida yashashsada, o'zlarining insoniy qiyofalarini yo'qotishmaydi. Maryam, Laylo hamda uning ikki norasida go'dagi hayotini asrab qolish uchun o'z hayotini qurbon qilganida ham, bu bolalar kulfatlar aro tug'ishgandan-da a'lo bo'lib qolgan ikki ayolning orzulari ijobat bo'ladigan kunlarni ko'rishlariga sirayam shubhalanmaydi.

“Ming quyosh shu'lası” - Afg'onistondagi so'nggi o'ttiz yil - Sovet hujumi davridan to Tolibon hukmronligigacha Tolibonni qayta tiklashdan so'ng, bu mamlakatning zo'ravonliklari, qo'rquvlari, umidlari va e'tiqodlarini keltirib chiqaradigan o'zgaruvchan voqealarga qarshi hayratomuz bir voqea. samimiy, insoniy haqiqatlar. Bu shaxsiy hayot - omon qolish, oila qurish, baxt topish - bu yerda sodir bo'layotgan tarixdan ajralib turadigan, ikkita avlodning avlodlari

haqida asarda ya'ni "Ming quyosh shu'lası" asarida hikoya qilinadi.

Bu roman hayot haqiqatining qog'ozda aks etgan tasviridir. Asar urush dasthatlarini ochibgina qolmay, balki tinchlik insonlar uchun ulug' ne'mat ekanligini, uning parokanda qilinishi qanchalar qimmatga tushishi mumkinligini doimo yodimizga solib turishi bilan ham katta ahamiyatga egadir.

Holid Huseyni ijodidagi kuchli satirik xususiyatlar, ayniqsa, 2000-yillarda yaratilgan asarlarida namoyon bo'ladi. Holidning asarlarida qishloq hayoti, aristokratik sarqitlar va o'rta tabaqadagi intilish kabi ta'sirlarni ko'rish mumkin.

Holid Huseyni 2018-yilda "Sea prayer" ("Dengliz iltijosi") asarini yozadi. Bu asar o'z davri muammolarini ochib bergan asar hisoblanadi. Unda katta sinf vakillarining qishloq hayotini ko'rish mumkin. Asar markazida *Barsetshire* (Barsetshaye) hokimligida ko'zga ko'ringan ikki bir-biriga yaqin qarindosh Mahmud va Tebbenlar oilasidan yosh Mustafa va qarindoshlarining hayoti berilgan.¹⁸

Muallifning 2008-yillarda yozilgan asarlarida urush va uning asoratlari kabi mavzularni kuzatish mumkin. Bunday asarlarida butun urush voqealari, ayollarning o'z turmush o'rtog'ini urushga yuborishi, qaytishini intiqlik bilan kutishi, kechinmalari hamda qiyinchiliklari ochib berilgan. Ular kitobxonni afg'on ayolining jasorati va shijoati, urush tasvirlari va qiyinchiliklari, butun jahon mamlakatlari orasidagi siyosiy o'yin, dunyoning eng kuchli davlatlari orasida yer va boylik uchun kurash kabi masalalardan voqif etadi.

2014- yillarda yozuvchi ijodi romantik va zamonaga mos muammo va chigal masalalarni ilgari surdi. "Dengiz iltijosi" asarida yozuvchi o'z ichki hissiga tayanib, yangi savdogar sinfining paydo bo'lishi va muvaffaqiyatga erishishi haqida, ammo bunga o'z mehnatsevarligi, ochiq ko'ngilligi va saxiyligi tufayli erishishi to'g'risida yozadi. Bu asari, shuningdek, romantik kayfiyatda yozilgan.

Yozuvchi muxlislaridan biri Holid Huseynining ijodiga quyidagicha fikr bildirgan: "Men bu yozuvchi qalamiga mansub bitta asarini qiziqishsiz o'qishni

¹⁸Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2006.-B.235.

boshladim. Bir necha yillardan keyin romanlarining 3 tasini o'qib, shak-shubhasiz uning muxlisiga aylandim.”¹⁹

Yozuvchi asarlarida juda ajoyib, sehrli, xayoliy, go'zal maskanlar haqida o'qish mumkin va bu joylar uning muxlislariga juda tanish bo'lib, ular uchun ulkan dunyo hisoblanadi. Uning qahramonlarini qiynab turadigan muammo va chigalliklar yoki ichki his-tuyg'ular juda haqiqiy tasvirlangan. Ularni tushunish oson.

Holid Huseynining urush haqidagi romanlari har kunlik tafsilotlar bilan bezatilganligi Elizabet Boundning ichki his-tuyg'ularini jumbushga keltirganini uning quyidagi so'zlaridan bilishimiz mumkin: “Agarda kelajakning siyosiy tarixchisi Holid Huseynining romanlarini tilga olmasa, demak, u o'z kasbining bilimdoni hisoblanmaydi.”²⁰ Bu kabi ta'sirli fikrlar Holid Huseynining juda kuchli yozuvchi ekanligini isbotlaydi. U davr muammosini, aynan, ma'lum bir paytdagi umumiy vaziyat va holatlarni ochiq-oydin bayon etib beradigan, inson orzu umidlari, taqdiriga alohida to'xtalib o'tadigan, kitobxonning his-tuyg'ularini jumbushga keltira oladigan o'z kasbi ijodkori va shu o'rinda yaxshi psixolog hamdir. Chunki insonning ichki hislariga ta'sir qilish uchun ham ma'lum bir vaziyatlarda kitobxonni o'z qahramoni bilan birga xursand bo'lishi, u bilan birga kulishi, unga og'ir damlarda achinishi hatto, yig'lashi uchun kuchli ijodkorlik, insonga kuchli ta'sir qiladigan so'zlarni tanlay olish qobiliyati va psixologik bilim zarurdir. Yozuvchining urushni tasvirlagan romanlari uning (texnik jihatdan) kuchli va yetuk uslub egasi ekanligini ifodalaydi.

Umuman olganda Holid Huseyni ijodini tahlil qilib, uni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. 2003-yillarda bolalar hikoyanavisi hamda romannavisi, kinoyali va hajviy ocherklar hamda kichik hikoyalar yozuvchisi;
2. 2010-yillarda kuchli satirik xususiyatlarni yorituvchi yozuvchi;

¹⁹Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2002.-B.94.

²⁰Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2006.-B.239.

3. 2014-yillarda o'z davri muammolarini ochib beradigan, his-tuyg'ularni jumbushga keltira oladigan romanlar muallifi.

Taniqli amerikalik afg'on adibi Holid Huseyni qalamiga mansub, juda katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan asardan parcha havola etmoqdamiz. Asarda yaqin o'tmishda, bizdan atigi bir necha yuz chaqirim yiroqda yuz bergan haqqoniy voqealar tilga olingan. Asar qahramonlarining fojiaiy qismati bilan tanisharkansiz, ularga nisbatan hamdardlik hissini tuyish barobarida tinchlik, osoyishtalik, farovonlik singari ne'matlarning qanchalik bebaho ekanini anglab etasiz. Qalbingizda biz yashayotgan zamon va makon uchun behad shukronalik jo'sh uradi.

“Bundan 26 yil muqaddam qish kunlari yuz bergan o'sha mash'um hodisa meni tamoman boshqa odamga aylantirdi. Ba'zan o'tmishni eslarkanman, ichimni alamli iztirob tilkalay boshlaydi. Bu yil yoz kunlarining birida Pokistondan eski qadrdonim, otamning do'sti Rahimxon qo'ng'iroq qilib, tez yetib borishim lozimligini aytdi. Oshxonada turgancha telefonni qulog'imga bosib, uning tahlikali ovozi tinglarkanman, bu shunchaki taklif emasligini angladim. Beixtiyor xayol meni o'tmishga chorladi, kechirilmas gunohlarim haqidagi eski xotiralar ko'z oldimda jonlandi. Suhbatni tugatib, sayrga otlandim. Yo'lim Sprekels ko'li bo'ylab, “Oltin darvoza” xiyobonining shimoliy chegaralaridan o'tardi. Qiyomga kelgan quyosh nurlari ko'l sathida jilvalanar, suv yuzida o'yinchoq kemachalar elkanlarini shishirib suzib yurardi. Odamlar, daraxtlar, shamol tegirmonlari... bari-barini pastda qoldirgancha varraklar San-Fransisko osmoni uzra bearmon uchardi. Shu onda qulog'imga Hasanning so'zlari chalingandek bo'ldi: “Sen uchun ming martalab...”.²¹ Varraklarni jonidan ortiq ko'radigan, ular qo'nadigan joyni aniq chamalab, hammadan oldin o'sha joyga borib turadigan, tirtiq labli bolakayning bu so'zlari miyamda qayta-qayta aks sado berardi. Men majnuntol tagidagi o'rindiqla cho'karkanman, Rahimxonning telefonda aytgan so'ng-gi so'zlarini esladim: “o'tmishdagi xatolaring-ni tuzatishing, nomingni oqlab olishing

²¹ Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2006.-B.234.

uchun qulay fursat tug‘ildi”.²² Men osmondagi varraklarga qarab, Hasan haqida, Bobo haqida, Ali haqida o‘ylardim, Kobulni xotirlardim, 1975 yilning qish kunlariga qadar bo‘lgan hayotimni bir qur ko‘z oldimga keltirdim. Ana shu qish meni o‘zgartirdi, o‘sha qish meni butunlay boshqa odamga aylantirdi”, deydi yozuvchi “Ming quyosh shul’asidan” asarida. Yuqoridagi parchada guvohi bo‘lganimizdek, asarning har bir lavhasida o‘zining kuchli va o‘tkir qalam sohibi ekanini isbotlaydi.

Holid Huseynining asarlari va ijodiy namunalari bilan tanishib chiqish mobaynida ba’zi bir qismlariga ijodiy baho berish bilan cheklanmasdan ularning xatolarini aytib qaysi yo‘l bilan yozsa muxlislarning e’tirofiga sazivor bo‘lishini aytgan. Bu yordam berish mobaynida Holid Huseyni nafaqat ularning ijodga bo‘lgan qiziqishini balki o‘zining ijodini ham yuksaltirgan. Ularga o‘rgatish mobaynida o‘zi ham ulardan ko‘p narsalarni o‘rgangan desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Holid Huseynining asarlari va ularning mazmuundorligi haqida gapiradigan bo‘lsak, ular juda ham ko‘p va sermazmun bo‘lib dunyo bo‘ylab o‘zining muxlislarga egadir. Holid Huseynining har bir asarida ulkan bir ma’no-mohiyat va ajib bir go‘zallik yashiringan desak mubolag’a bo‘lmaydi. Holidning har bir kitobi muxlislar tomonidan juda ham iliq kutib olingan va bestseller kitoblarga aylangan. Holidning asarlari turli xil mavzuda bo‘lsa ham, ba’zi asalari borki hayotning achiq haqiqati yotadi. Yozuvchi o‘zining asarlarida o‘zi hayotda ko‘rgan qiyinchiliklarni yaqqol namoyin qiladi. Bu asarlarnilarni o‘qish mobaynida insonlar ich ichidan bir- biriga mehr- muhabatli bo‘lishga va qanday vaziyat bo‘lmasin hammaga qo‘lidan kelgancha yordam berishga harakat qilishga o‘rganadi. Holid Huseynining har bir asarining o‘ziga xos va o‘zgacha jihati shundaki, u asarlarida aniq bir mavzu tanlaydi . Yozuvchining har bir asarida hayotning har bir jabhasi yaqqol ochib beriladi. Holid asar yaratishda mavhum narsalarni yozishdan qochadi.

²²Khaled Hosseini. A Thousand Splendid Suns. New York. 2016.-P.15.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Holid Huseyni o'z uslubiga ega serqirra ijodkordir. Uning ijodini o'rganish va tahlil qilish bir qator tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi. Shuni takidlab o'tmoqchimizki, uning asarlarida o'ziga xos mavzular talqin qilinadi. Ayniqsa, yozuvchi vatan mavzusiga bag'ishlangan asarlari diqqatga sazovordir.

II BOB. H.HUSEYNI ASARLARIDA VAQT VA MAKONNI TASVIRLASH MAHORATI

II.1 Yozuvchining “Tog’lar ham sado berdi” asarida vaqt tahlili

Yozuvchining asarlarida ifodalanga vaqt va makonning uyg’unligiga e’tibor qaratishdan oldin asarlarda ifodangan xronotop, ya’ni makon va zamon tasviri haqida qisqacha to’xtalib o’tishni joiz deb topdik.

Har qanday epik asarning sujetini shakllantirishda xronotopning, ya’ni vaqt va makon tasvirining o’rni juda beqiyosdir. Badiiy xronotop haqida M.M Baxtin “Romanda zamon va xronotop shakllari” tadqiqotida shunday deb aytgan edi: “Badiiy adabiyotda xronotop g’oyat muhim ahamiyatga ega bo’lib hisoblanadi. Xronotop shakliy-mazmunliy kategoriya sifatida ma’lum darajada adabiyotdagi inson obrazini belgilab beradi desak mubolag’a bo’lmaydi”.²³

Romanning ko’lamdorligi, mazmundorligi undagi vaqt va makon tasviri, ya’ni xronotopning aniqligi, uzvlarning bir-biriga muvofiqligi bilan bevosita bog’liqdir. Bu fikr isbotini zamonaviy nasriy adabiyotda yaratilgan epik asarlar misolida ko’rishimiz mumkin. kuzatish hamda tadqiqotlar milliy romachilikda xronotopning quyidagi shakllarining mavjud ekanligini ko’rsatadi: 1) An’anaviy xronotopda badiiy makon va zamon bor bir davrda taalluqli bo’lib, vaqt xronologik tartibda tasvirlanadi, tabiiyki, sujet harakati bilan joy, ya’ni makon tasviri o’zgarib yoki qaytalanib boradi. Voqealar ma’lum bir vaqt oqimida kechadi. To’g’ri, bunday xronotopda matn badiiy konsepsiyasi, sujet talabiga ko’ra muayyan epizodlarda boshqa, ya’ni oldingi yoki keyingidavrga ko’chishi mumkin bo’ladi. Bunday ehtiyoj tug’ilgan paytida muallif “retrospektiv” yoki “qoliplash” usulidan foydalaniladi.²⁴

XX asrning 20-60-yillarida yuzaga kelgan aksariyat o’zbek romanlarida an’anaviy xronotop istifoda etilgan. 2) Yonma-yon (parallel) xronotop- badiiy matnda bir nechta xronotop ifoda topadi. Har bir makon-zamon hududida alohida

²³Normatova Sh. Jahon adabiyoti. – T.: Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008. –B.102.

²⁴ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2002.-B.87.

obrazlar tizimi, badiiy ziddiyat, sujet maydoni mavjud bo'lad. Badiiy konsepsiya ijodkor dunyoqarashi hayot, inson, tarix, borliqqa munosabat va unga yondosh makon-zamon birliklarini o'zaro bog'lab turadi. 3) Badiiy matnda bir necha xronotop bir-biri bilan qorishib ketgan holda namoyon bo'ladi. Bunda makon hamda chegaralar buziladi, asosiy e'tibor qahramon hamda prsonajlarning ichki ruhiy olami oqimlariga qaratiladi. Bu esa ruhiy kechinmalarning muayyan xronotopga mansub emasligini kuzatadi. Ushbu shakl keying o'n yillikda milliy adabiyotga kirib kelgan modern, ya'ni zamonaviy romanlarga xos bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagi xronotop shakllarini yozuvchi Omon Muxtor ijodi misolida tadqiq etish mumkin. uning romanlarida xronotop o'ziga xos rang-baranglikda badiiy ifodasini topgan. M.M Baxtin adabiyotdagi xronotop inson obrazi bilan chambarchas bog'liq ekanligini alohida ta'kidlaydi. Zero, insonning asl qiyofasi, mohiyati, avvalambor, u yashagan davr muhit, jamiyat kabilar bilan izohlanadi. Yozuvchining dastlabki romani- "Yillar shamoli"da an'anaviy xronotop mavjud bo'lib hisoblanadi. Asarda oddiy bir qishloq, undagi odatlar, odamlarga xos bo'lgan xususiyatlar, milliy ruhiyat qat'iy izchillikda tasvirlangan. muayyan zamon hamda makondan chetga chiqishga harakat sezilmaydi. Muallif romanchilikda o'tgan asrning 20-30-yillarda yuzaga kelgan xronotop an'anasini davom ettirgan. Aslida xronotopning bu shakli XIX-XX asrlarda jahon adabiyotida keng tarqalgan bo'lib hisoblanadi. L.Tolstoy, I. Turgenev, M. Gorkiy, Balzak, N.Gordon Stepdiyev, E. Zolya, A. Qodirov, S. Ayniy, Oybek, M. Avezov kabi zabardast ijodkorlar yaratgan badiiy asarlar an'anaviy xronotop asosida yuzga kelgan bo'lib hisoblanadi.²⁵

Zamon taraqqiyoti, hayot, odamlar psixologiyasidagi o'zgarishlar tabiiy ravishda roman strukturasiga o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Voqealar o'zgargani sari romanlarning badiiy maydoni, mazmuni va shakl olami yangicha tus olmoqda. Shuningdek, ular o'z qiyofasini, sujet-kompozitsion qurilmasini yangilab bormoqda. Roman haqidagi o'tmishda unga berilgan ta'rif va tartib-qoidalar bugungisiga hamisha ham to'g'ri kelavermaydi. Uning badiiy qurilmasi, shu

²⁵Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2002.-B.94.

jumladan, xronotop shakllari ham hayot, tafakkur, madaniyat, adabiyot taraqqiyotiga uyg'un holda o'zgarmoqda. Bu fikrni O. Muxtorning keyingi romanlari "To'rt tomon kulba" (uch kitobdan iborat), "Sharq daftari", "Ayollar mamlakati va san'ati", "Aflotun", "Ffu", "Maydon", "Buyuk farrosh" kabi romanlari tasdiqlaydi. Adibning asarlari haj jihatdan muxtasarlashib borayotgan ayrim adabiyotshunoslarga e'tiroz uyg'otmoqda. Buning boisi shuki, ularda klassik romanlarga xos bo'lgan katta hajmning, an'anaviy uzvlarning borgan sari kamayib yoki yo'qolib borayotgani kuzatiladi.²⁶

Yozuvchining yangi asarlarida muaqqidlar tomonidan talab va so'roqlar qo'yilishi tabiiydir. Chunki uzoq vaqt mobaynida shakllangan, muayyan mezonlarga ega bo'lgan "yangi roman" o'z shamoyili, badiiy ifodasi bilan ajralib turadi. U o'ziga yangicha munosabat hamda yangi bahona talab qiladi. Ma'lumki, romanlar jihatdan emas, balki o'ziga xos mazmun-mohiyati va tafakkuri bilan belgilanadi. "Roman yuki" matndagi badiiy salmoq, ijodkor konsepsiyaida namoyon bo'ladi. Xususan, xronotopning ko'lamdorligi asar janrini aniqlashda yordam beradi.

XXI asr Jahon adabiyotida juda rivojlanish asri bo'ldi. Negaki bu davrda qanchadan qancha yosh va iste'dodli yoshlar o'z asarlari bilan Amerika adabiyotiga katta shuhrat olib kelishdi. Shulardan biri – Holid Huseyni hisoblanadi. Holid Huseyni faqatgina Amerikada emas, butun dunyoda o'zining serqirra ijodi va mashhur asarlari bilan shuhrat topgan adib hisoblanadi.

"Tog'lar ham sado berdi"- bu Holid Huseynining eng kassabop hamda eng mashhur asarlardan biri hisoblanib, unda vaqt va makonning uyg'unligiga alohida e'tibor berilgan. Qahramonlarning harakatlari, o'y-xayollari juda yorqin bo'yoqlarda aks ettirilgan.

Asarni o'qish davomida afg'on diyori haqidagi tasavvuringiz yanada boyiydi. Endigi voqealar nafaqat qahramonlar tug'ilib-o'sgan makonda, balki Qobul, Parij, Kaliforniya va yunon orollarida yuz beradi. Bundan ko'rinib turibdiki asardagi voqealar bevosita yuqorida ta'kidlangan joylarda bo'lib o'tadi.

²⁶ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. 2002.-B.9.

Holid Huseynining navbatdagi ijod mahsuli ham afg'on xalqi hayotiga bag'ishlangan. Unda Vatanini tark etishga majbur bo'lgan millat vakillarining qismati chizgilanadi. Muallif voqelikni real tasvirlashga uringan.

Roman Saburning farzandlariga ertak aytayotgani bilan boshlanadi. Unda o'g'li to'kis hayot kechirishi uchun dev bilan yashashga ko'ngan ota haqida hikoya qilinadi. Shu orqali Sabur dilbandlarini yuz berishi kutilayotgan voqeaga ruhan tayyorlardi.

Kambag'al ota ikki norasidasini boqish uchun uchinchisini Qobulda yashovchi boy oilaga sotadi. Judolikka duchor bo'lgan jon-jigarlarning keyingi taqdiriga to'xtalishdan avval yozuvchi boshqa qahramonlarning ham umr yo'lini tasvirlaydi. Aslida ular Abdulla va Pariga juda yaqin obrazlar ekaniga asarni o'qish jarayonida amin bo'lasiz. Ko'z oldingizda turfa taqdirlarni birlashtiruvchi ulkan to'rtburchak paydo bo'ladi. Parini sotib olgan shoira Nila Vahdati, unga qiyo ham boqmagan o'gay onasi Parvona, Afg'onistondan qochib, Amerikada yashashga majbur bo'lgan ikki inson hayoti bilan ham tanishasiz.

Diqqatni tortuvchi obrazlardan yana biri Parining o'ziga to'q odamlar qo'liga tushishiga sababchi bo'lgan o'gay tog'asi Nabi hisoblanadi. Shu asnoda u ham kuyovi, ham do'sti bo'lgan Saburga yordam beradi. Anyan shu paytda o'quvchi yana bir haqiqat bilan yuzlashadi: bir davlatmand oila farzandi otasi yaxshi inson emasligini bilib qoladi, ichida isyon ko'tariladi.

Voqealar chigallashib borgan sari xayolingizda faqat bir savol aylanadi: sotib yuborilgan singil akasi bilan diydorlasharmikan? Muallifning javobi quyidagicha: "Tog'lar ham sado berdi!"

Asarni o'qib bu asardan ilhomlangan kitobonlardan biri shunday fikr beradi: "Men bu asar bilan tanishganimdan so'ng, mo'jazgina kutubxonamda o'zim uchun qadrli deb bilgan kitoblarim orasida yana bir durdona asar qo'shilganiga guvoh bo'ldim. Ularni bari hayotimni yanada yaxshilashga, bilimlarimni rivojlantirishga yordam berib kelmoqda. Ammo bir kitob borki uni har gal ochganimda "Sadoqat

va vijdonni” ko’raman. Bu Holid Huseynining “Shamol ortidan yugurib” asari hisoblanadi”.²⁷

Yozuvchi shunday deydi: “Bu asarimda: O’tmishdagi va hozirgi vaqtdagi Afg’on diyorining, u yerdagi insonlarning ayniqsa, norasida go’daklarning hayoti, haqiqatlari yaqqol ochilib berilgan. Asardagi bosh qahramonlardan hisoblangan Hasanning o’z hojasi (inisiga) bo’lgan sadoqati, vafosi kitobxonni tamoman o’ylantiradi. “Afg’onistonda bolalar ko’p, bolalik yo’q” bu iboradan sir emaski, barchamiz ommaviy axborot vositalari orqali u yerdagi vaziyatdan deyarli kun ora boxabar bo’lamiz. Men Holid Huseyni o’sha yoshgina Amir sifatida gavdalantiraman. Bilaman, balki bu narsa shunchaki ro’yodir. Ammo shuni aniq ayta olamanki, Amir vatanini sevadi. Unga doim ilhaq yashaydi. Ammo nimadir buni yuzaga chiqishiga qo’ymaydi. U yerdagi vaziyat, jangarilik hisoblanadi. Bular ham to’g’riku-ya, ammo vijdon azobi desak mutlaqo to’g’ri bo’lar”.²⁸

Kitobda o’z yuragini eshitishni o’rgangan qahramon o’z orzusi sari dadil qadam tashlaydi, bu qadam hayotda unga tavakkal qilishni, bir bosqichda qotib qolmaslikni, o’z shaxsiy afsonasi sari odimlashni o’rgatadi.

Shaxsiy afsona - bu ko’nglimiz tubida doim orzu qilgan xohlagan narsamizdir. Hayotda haqiqiy baxtga erishish uchun uni amalga oshirishimiz shartdir. Shundagina hayotimiz haqiqiy mazmunli bo’ladi: “Sen yo’lingda har bir o’rgangan narsang, harakating mazmunga ega bo’lishi uchun albatta izlagan xazinangni topishing kerak”.²⁹

Hayotda har bir insonning eng katta, umrida erishishi kerak bo’lgan nuqta, yagona orzusi bo’lishi kerak, qolgan har bir harakat, har bir qadam bizni shu orzu sari eltishi kerak. Hayotda tug’ilib, ishlab, tirikchilik qilib, oila boqib o’lib ketish uchun yaratilmaganmiz. Yashashdan albatta maqsadimiz bo’lishi kerak. Tug’ildikmi, demak o’zimizdan biror nima qoldirish kerak.

²⁷ Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2006.-B.234.

²⁸ H.Huseyni. Tog’lar ham sado berdi. Toshkent. 2006.-B.7.

²⁹ H.Huseyni. Tog’lar ham sado berdi. Toshkent. 2006.-B.7.

Bu asarda Asar qahramoni o'rnida o'zini qo'yib ko'rgan har qanday odam hayotini chuqurroq taftish qila boshlaydi. "U hayot ekanligidan beri dunyoda hech bir narsa o'zgarmagan, har kun tevaragida ko'rib kelgan ikir-chikirlardan bittasi ham o'zgarmagan. Odam qalbi, tirik inson qalbi ular darajasida barbod qilingan bo'lsa ham boshqa tus olmagan. Hamma narsa ilgarigicha va boshqacha hisoblanadi. Fontanlarda suvlar yarqirab otiladi. Piramonlarda chumchuqlar chirqillashadi, kecha ular qanday chirqillashgan bo'lsalar, ertaga ham yana shunday chirqillashadi...".³⁰

Bunday o'ylar ayni bizning zamonamiz uchun juda qimmatli hisoblanadi. Kitobni o'qigan o'quvchi o'zidagi ijobiy fazilatlarni yanada kengroq ko'rsatishga, o'zini o'zgartirishga harakat qiladi. Nazarimizda, bu romanning har bir o'quvchi javonida bo'lgani foydadan holi emas. Asarning mohiyatida xudbinlikka undovchi, dinni ko'z-ko'z qilish, kitobxonni o'z yo'rig'iga solishga urinishning asoratlari yo'q deb bemalol aytish mumkin. Ayniqsa, muhabbat tuyg'usi juda bosiqlik bilan qalamga olingan. Artur va Jemma anchadan beri bir-birlariga ko'ngil qo'yishgan bo'lsa-da, asarda ularning munosabatlari Sharq turmushiga xos nazokat bilan bo'y ko'rsatadi.

Zamon taraqqiyoti, hayot, odamlar psixologiyasidagi o'zgarishlar tabiiy ravishda roman strukturasiga o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Voqealar o'zgargani sari romanlarning badiiy maydoni, mazmuni va shakl olami yangicha tus olmoqda. Shuningdek, ular o'z qiyofasini, sujet-kompozitsion qurilmasini yangilab bormoqda. Roman haqidagi o'tmishda unga berilgan ta'rif va tartib-qoidalar bugungisiga hamisha ham to'g'ri kelavermaydi

Yuqorida keltirib o'tilgan romanning ko'lamdorligi, mazmundorligi undagi xronotopning aniqligi, uzvlarning bir-biriga muvofiqligi bilan bevosita bog'liqdir. Bu fikr isbotini zamonaviy nasriy adabiyotda yaratilgan Holid Husaynning asarlari misolida ko'rishimiz mumkin.

³⁰ Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2006.-B.234.

Yozuvchining yangi asarlarida muaqqidlar tomonidan talab va so'roqlar qo'yilishi tabiiydir. Chunki uzoq vaqt mobaynida shakllangan, muayyan mezonlarga ega bo'lgan "yangi roman" o'z shamoyili, badiiy ifodasi bilan ajralib turadi. U o'ziga yangicha munosabat hamda yangi bahona talab qiladi. Ma'lumki, romanlar jihatdan emas, balki o'ziga xos mazmun-mohiyati va tafakkuri bilan belgilanadi. "Roman yuki" matndagi badiiy salmoq, ijodkor konsepsiyasida namoyon bo'ladi.

Biz endi fikr-mulohazalarimizni "Tog'lar ham sado berdi" asarida tasvirlangan vaqt chizgilariga e'tbor qaratmoqchimiz.

"Tog'lar ham sado berdi" — Holid Huseynning ushbu asarni o'qish davomida afg'on diyori haqidagi tasavvuringiz yanada boyiydi. Endigi voqealar nafaqat qahramonlar tug'ilib-o'sgan makonda, balki Qobul, Parij, Kaliforniya va yunon orollarida yuz beradi. Holid Huseynning ushbu ijod mahsuli ham afg'on xalqi hayotiga bag'ishlangan.

"So, then. You want a story and I will tell you one. But just the one. Don't either of you ask me for more. It's late, and we have a long day of travel ahead of us, Pari, you and I. You will need your sleep tonight. And you too, Abdullah. I am counting on you, boy, while your sister and I are away. So is your mother. Now. One story, then. Listen, both of you, listen well. And don't interrupt."

Once upon a time, in the days when divs and jinns and giants roamed the land, there lived a farmer named Baba Ayub. He lived with his family in a little village by the name of Maidan Sabz. Because he had a large family to feed, Baba Ayub saw his days consumed by hard work. Every day, he labored from dawn to sundown, plowing his field and turning the soil and tending to his meager pistachio trees. At any given moment you could spot him in his field, bent at the waist, back as curved as the scythe he swung all day. His hands were always callused, and they often bled, and every night sleep stole him away no sooner than his cheek met the pillow".³¹

³¹ Khaled Hosseini. The mountains echoed. New York. 2013.-P.1.

Roman voqealarining sodir bo'lishi 1952-yil kuzdan boshlanadi. Roman Saburning farzandlariga ertak aytayotgani bilan boshlangan. Unda o'g'li to'kis hayot kechirishi uchun dev bilan yashashga ko'ngan ota haqida hikoya qilmoqda. Shu orqali Sabur dilbandlarini yuz berishi kutilayotgan voqeaga ruhan tayyorlagandek go'yo. Asardan keltirilgan yuqoridagi parchadan ko'rinib turibdiki, asar qahramonlari juda nochorlikda hayot kechirishadi.

Bugungi kunda adabiyotida zamonaviy nasriy turlar ko'lamida juda keng. Lekin ularning ichida hikoyachilik boshqalariga nisbatan kengroq rivoj topmoqda. Chunki hikoya xalq hayotini osonlik bilan aks ettirgani sabab ham aholi o'rtasida tez tarqaladi, ular hayotini ochib beradi. Ulardagi obrazlarning tanlanish jarayoni bugungi Afg'oniston ijtimoiy hayotini yaqqol ko'rsatib turadi. Ma'lumki, adabiyotning bosh obrazi bu – inson. Yuqorida keltirilgan parchada ham Afg'onistonning XX asrdagi ijtimoiy holati ko'rsatib berilgan.

“Father had never before hit Abdullah. So when he did, when he whacked the side of his head, just above the ear— hard, suddenly, and with an open palm— tears of surprise sprung to Abdullah's eyes. He quickly blinked them back.

“Go home,” Father said through gritted teeth. From up ahead, Abdullah heard Pari burst into sobs.

*Then Father hit him again, harder, and this time across the left cheek. Abdullah's head snapped sideways. His face burned, and more tears leaked. His left ear rang. Father stooped down, leaning in so close his dark creased face eclipsed the desert and the mountains and the sky altogether”.*³²

Yuqorida keltirib o'tilgan parchada asar voqealari 1952-yil kuzda Afg'onistonning chekka qishloqlaridan birida sodir bo'lmoqda. Ushbu parchada Afg'oniston diyorida yashayotgan insonlarning murakkab hayotlari ushbu oila misolida yoritib berilgan bo'lib, ushbu oila og'ir sinovlarga duch keladi. Ota-onalar va bolalar nochorlikdan ayro yashashga majbur bo'ladilar.

³² Khaled Hosseini. The mountains echoed. New York. 2013.-P.12.

“Parwana smells it before she pulls back the quilt and sees it. It has smeared all over Masooma's buttocks, down her thighs, against the sheets and the mattress and the quilt too. Masooma looks up at her over her shoulder with a timid plea for forgiveness, and shame— still the shame after all this time, all these years. “I'm sorry,” Masooma whispers. Parwana wants to howl but she forces herself into a weak smile. It takes strenuous effort at times like this to remember, to not lose sight of, one unshakable truth: This is her own handiwork, this mess. Nothing that has befallen her is unjust or undue. This is what she deserves. She sighs, surveying the soiled linens, dreading the work that awaits her. “I'll get you cleaned up,” she says. Masooma starts to weep without a sound, without even a shift in her expression. Only tears, welling, trickling down.

*Outside, in the early-morning chill, Parwana starts a fire in the cooking pit. When the flames take hold, she fills a pail with water from Shadbagh's communal well and sets it to heat. She holds her palms to the fire. She can see the windmill from here, and the village mosque where Mullah Shekib had taught her and Masooma to read when they were little, and Mullah Shekib's house too, set at the foot at a mild slope. Later, when the sun is up, its roof will be a perfect, strikingly red square against the dust because of the tomatoes his wife has set out to dry in the sun. Parwana gazes up at the morning stars, fading, pale, blinking at her indifferently. She gathers herself”.*³³

Afg'oniston... O'n yillar mobaynida jahon afgor ommasining diqqat markazida turdi, o'n yillar mobaynida jahon afgor ommasi bu yurt tuprog'ida borayotgan qonli urush haqidagi haq so'zni eshitishga ilhaq bo'ldi.

Taassuflarki, kurash sharoitida oshkoralik deya ayuhannos solayotganlar ham bu haq so'zning metin tig'iga dosh berolmadilar, o'zlarining haqiqiy qiyofalarini shundagina alayno-oshkor namoyish etdilar¹. Halqimiz vujudidagi necha-necha teran tomirlarning tub ildizlari shu yurt tuprog'iga borib tutshgani sir emas. Shundanmikin, u haqda haq so'zni aytdiq, u haqda kuyinmoq eng avvalo bizning zimmamizda edi.

³³ Khaled Hosseini. The mountains echoed. New York. 2013.-P.24.

Yuqorida keltirilgan parchada 1949-yil bahor oylarida sodir bo'lgan voqealar rivoji keltirib o'tilmoqda. Asar qahramonlari hayotida sodir bo'layotgan ushbu voqea-hodisalar Afg'oniston diyorida sodir bo'lmoqda. Ushbu parchalar orqali insonlarning o'sha paytda boshidan kechirgan og'ir qiyinchiliklari juda go'zal parchalarda yoritib berilmoqda. Shuningdek, tabiat manzaralarining ko'klamda yanada chiroy ochishi haqida ham fikr-mulohazalar berilgan.

*“I met her in 1949, the year she married Mr. Wahdati. At the time, I had already been working for Mr. Suleiman Wahdati for two years, having moved to Kabul from Shadbagh, the village where I was born, back in 1946—I had worked for a year in another household in the same neighborhood. The circumstances of my departure from Shadbagh are not something I am proud of, Mr. Markos. Consider it the first of my confessions, then, when I say that I felt stifled by the life I had in the village with my sisters, one of whom was an invalid. Not that it absolves me, but I was a young man, Mr. Markos, eager to take on the world, full of dreams, modest and vague as they may have been, and I pictured my youth ebbing away, my prospects increasingly truncated. So I left. To help provide for my sisters, yes, that is true. But also to escape”.*³⁴

Yuqoridagi parchada ham Afg'onistonda bo'lib o'tgan kurashlar insonyat boshiga naqadar og'ir kulfatlarni olib kelgani haqida bayon qilinmoqda.

Biz bilamizki, Afg'oniston haqidagi haq so'z uch-to'rtta yig'loqi she'rlar satrlarida emas, minbarlarda emas, ul shahid ketgan askarlar onalarining xunolud yoshlarida, tun-u kun, kun-u tun mijja qoqmay chekkan iztiroblarida aytiladi. Mayib-majruh askarlarning “mening gunohim nimada edi?” degandek alamli boqishlarida aks etti. Ernst Xeminguey “Alvido, qurol!” romanining 1948-yilda yozgan so'z boshisida shunday degandi: “Bu kitobning muallifi ongli suratda shu fikrga keldiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar eng ajoyib odamlardir. Frontning qizg'in qismlariga kirib borganing sayin bunday ajoyib kishilarga ko'proq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishgan boshqa natsani

³⁴ Khaled Hosseini. The mountains echoed. New York. 2013.-P.34.

o'ylamaydigan to'ng'izlardir. Men urushda boylik orttirganlar, urush olovini yoqqanlar urushning birinchi kunlaridayoq mamlakat fuqarolarning muatar vakillari tomonidan orib tashlanmog'i zarur deb hisoblayman".³⁵

*"Since I was a full-time worker for Mr. Wahdati, I lived at his residence full-time as well. In those days, the house bore little resemblance to the lamentable state in which you found it when you arrived in Kabul in 2002, Mr. Markos. It was a beautiful, glorious place. The house shone sparkling white in those days, as if sheathed with diamonds. The front gates opened onto a wide asphalt driveway. One entered into a high-ceilinged foyer decorated with tall ceramic vases and a circular mirror framed in carved walnut, precisely the spot where you for a while hung the old homemade-camera photo of your childhood friend at the beach".*³⁶

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, qancha-qancha shahar va qishloqlarning yoqib yuborilishi, insonlarning bemavrid qurbon bo'lishi, onalar va bolalar qalbidagi bitmas tuganmas jarohat, jafokash xalq boshiga tushgan kulfat shu urush tufaylidir. Bu fojiiyaning nima ekanligini anglamoq uchun odamzot uni o'z ko'zi bilan ko'rishi, sitamlarini yuragidan o'tkazib, mohiyatini idrok etishi kerak.

Yuqoridagi parchada voqealar rivoji 2002-yil bilan 1950-yillar solishtirilyati. Parchani o'qigandan so'ng shunga amin bo'lish mumkinki, Kobulning ko'rinishi, shahardagi uylar, binolarda juda katta o'zgarish sodir bo'lgan bo'lib, buni sezmaslikning iloji yo'q. urushdan keyingi vayronagarchiliklar o'rnida asta-sekin yangi-yangi binolar qad ko'tarib, Afg'oniston diyori avvalgidek betakror qiyofaga kirgan.

"She lived in Paris with her daughter," one of the Germans, Thomas, says. "She died in 1974. Suicide, I think. She had problems with alcohol, or, at least, that is what I read. Someone gave me a German translation of one of her early volumes a

³⁵Ernest Hemingway. A farewell to arms. New York. 1971.-P.4.

³⁶Khaled Hosseini. The mountains echoed. New York. 2013.-P.56.

*year or two ago and I thought it was quite good, actually. . Surprisingly sexual, as I recall”.*³⁷

Yuqorida keltirib o'tilgan parchada asar qahramonlaridan biri Nila 1974-yilda vafot etgan. Nila tabiatan juda go'zal qobilyatga ega bo'lgan shoira bo'lib, jamiyatdagi kamchiliklarni ko'rsatib beruvchi she'rlari juda ko'pchilikning qalbidan joy olishga ulgurgan edi. U umining so'ngigacha Afg'oniston go'zalligini tarannum qiladi.

“The nurse, whose name is Amra Ademovic, had warned Idris and Timur. She had pulled them aside and said, "If you show reaction, even little, she going to be upset, and I kick you out." They are standing at the end of a long, poorly lit hallway in the men's wing of Wazir Akbar Khan Hospital. Amra said the only relative the girl had left— or the only one who visited— was her uncle, and if she'd been placed in the women's wing he would not be permitted to visit her. So the staff had placed her in the men's wing, not in a room— it would be indecent for the girl to room with men who were not relatives— but here, at the end of the hallway, a no-man's- and no-woman's-land.

*“And here I thought the Taliban had left town,” Timur says. “It's crazy, no?” Amra says, then lets out a bewildered chuckle. In the week that Idris has been back in Kabul, he has found this tone of lighthearted exasperation common among the foreign- aid workers, who've had to navigate the inconveniences and idiosyncrasies of Afghan culture. He is vaguely offended by this entitlement to cheerful mocking, this license to condescend, though the locals don't seem to take notice, or take it as an insult if they do, and so he thinks he probably shouldn't either”.*³⁸

Afg'oniston qadimiy mamlakat bo'lib, o'zining uzoq tarixiga ega, unda erkaklar bilan ayollar iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy sohalarda yelkama-yelka turib kelganlar. Shuni eslash lozimki, ayollarning o'rni har qanday insonlar jamiyatida

³⁷ Khaled Hosseini. The mountains echoed. New York. 2013.-P.64.

³⁸ Khaled Hosseini. The mountains echoed. New York. 2013.-P.68.

muhim ahamiyatga ega bo'lgan, zero, "Ayollar bir qo'li bilan beshikni , boshqasi bilan esa dunyoni tebratadilar" degan fikr mavjud, yana shunday fikr ham borki "Ayol farishta va inson o'rtasidagi maxluqotdir". Afg'onistonning uzoq va mashaqqatli tarixi davomida ayollar juda ko'plab zulmlarga, urush va janglarga turli qiyinchiliklarga matonat bilan sabr qilib kelganlar.

Yuqorida keltirib o'tilgan parchada 2003-yil bahorda Afg'oniston hududida sodir bo'lgan voqea tasvirlangan hisoblanadi. Ushbu parchani o'qib shunga guvoh bo'lishimiz mukinki, Afg'onistonda 2003-yilda ham ayollarning jamiyatda hech qanday o'ringa ega emasligi, kamsitilishi haqida bilib olamiz. Yoshgina qizaloq og'ir betob bo'lishiga qaramay, uni kasalxonda davolashdan vos kechishayotgani, inson hayoti, uning qadr-qimmatini sariq chaqalik qiymatga ega emasligi insonni qalbini o'rtaydi. Jamiyatda sodir bo'layotgan adalatsizliklar, kamsitishlar, ayollarning qadr-qimmatining yo'qligi ushbu parcha yaqqol o'z ifodasini topadi.

"She had reconnected with him the year before, in 1973, for the first time in almost a decade. She had run into him at a street march outside the Canadian Embassy, a student protest against the hunting of seals. Pari didn't want to go, and also she had a paper on meromorphic functions that needed finishing, but Collette insisted. They were living together at the time, an arrangement that was increasingly proving to their mutual displeasure".³⁹

Yuqorida keltirib o'tilgan parchada asar qahramonlari Pari hamda Juilen 1973-yil Kandada qayta uchrashadilar. Afg'onistonda ko'plab qiyinchiliklarni boshidan kechirgan bu ikki qahramon qayta uchrashadi.

"In her version, he is a man rightfully worried over the well-being of a deeply unhappy and self-destructive daughter who cannot help making shambles of her own life. He is a man who suffers humiliations and repeated assaults on his dignity and still stands by his daughter, takes her to India when she's ill, stays with her for six weeks. And, on that subject, what really was wrong with Maman? What did they do to her in India? Pari wonders, thinking of the vertical pelvic scar— Pari

³⁹Khaled Hosseini. The mountains echoed. New York. 2013.-P.74.

had asked, and Zahia had told her that cesarian incisions were made horizontally".⁴⁰

